

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

**RUS BOBURSHUNOSLIGINING TADQIQ QILINMAGAN JIHLARI<sup>29</sup>****Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,**Jahon adabiyoti kafedrası professori,**filologiya fanlari doktori,**Toshkent, O‘zbekiston**Email: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru).**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Qahharova Dilafro‘z Abdug‘afforovna***Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Jahon adabiyoti kafedrası v.b.dotsenti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: [dilafrozqahharova@gmail.com](mailto:dilafrozqahharova@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0008-0756-2256***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, boburshunoslik yo‘nalishida olib borilgan, ammo hozirga qadar ilmiy jamoatchilik e‘tiboridan chetda qolgan arxiv materiallari tahlil qilinadi. Tadqiqot asosan Sankt-Peterburgdagi yirik ilmiy markazlar – Rossiya Milliy kutubxonasi, Rossiya Fanlar akademiyasi arxivlari hamda Sharq qo‘lyozmalari instituti fondlarida saqlanayotgan manbalar asosida olib borilgan. Maqolada arxiv sharqshunosligi va imagologiya metodologik asos sifatida qo‘llanib, tarixiy-adabiy jarayonni qayta ko‘rib chiqish, rus boburshunosligining noma‘lum sahifalarini yoritish maqsad qilingan.

Maqola markazida A.N. Samoylovichning nashr etilgan va etilmagan ilmiy merosi turadi. Uning “Boburnoma” tarjimalariga yozgan taqrizlari, “Mubayyin” asarini to‘liq nashrga tayyorlash borasidagi ishlari, Bobur devonining Parij va Rampur nusxalari yuzasidan olib borgan matnshunoslik tadqiqotlari, shuningdek, “Imperator Bobur she‘rlari to‘plami”ning ikkinchi qismiga doir qo‘lyozma materialini ilmiy muomalaga kiritiladi. Maqolada Samoylovichning tarjimashunoslik tamoyillari, matnni o‘qish va talqin qilishdagi prinsipial yondashuvi, shuningdek, Bobur she‘riyatining janr, vazn va til xususiyatlariga doir kuzatishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Bobur devonining Parij va Rampur nusxalarining tarkibi, ularning o‘zaro farqlari, devonlarga kirmagan she‘rlar, “Boburnoma” hamda boshqa manbalardagi poetik namunalarning qiyosiy o‘rganilishi maqolaning muhim ilmiy natijalaridan biridir. Maqola arxiv materiallarini imagologik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida yangi ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirishga xizmat qilishi, shuningdek, boburshunoslik tarixini yanada to‘liq va haqqoniy tiklash imkonini berishini asoslab beradi.

**KALIT SO‘ZLAR**

Bobur,  
boburshunoslik, rus  
sharqshunosligi, arxiv  
sharqshunosligi,  
imagologiya, A.N.  
Samoylovich,  
“Boburnoma”,  
“Mubayyin”, Bobur  
devoni, Parij nusxasi,  
Rampur nusxasi,  
matnshunoslik,  
tarjimashunoslik,  
qo‘lyozma manbalar, rus  
navoiyshunosligi, ilmiy  
meros, adabiy aloqalar,  
qiyosiy adabiyotshunoslik.

**Received:** October 17,  
2025**Accepted:** November 23,  
2025**Available online:**  
February 25, 2026<sup>29</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xalliyeva G., Qahharova D. Rus boburshunosligining tadqiq qilinmagan jihatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 406-416..

## UNEXPLORED ASPECTS OF RUSSIAN BABUR STUDIES

**Gulnoz Iskandarovna Khalliyeva***Professor, Department of World Literature**Doctor of Philology**Uzbekistan State University of World Languages**Tashkent, Uzbekistan**Email: gulnoz7410@mail.ru**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Dilafroʻz Abdugʻafforovna Qahharova***PhD in Philology**Acting Associate Professor, Department of World Literature**Uzbekistan State University of World Languages**Tashkent, Uzbekistan**Email: dilafrozqahharova@gmail.com**ORCID ID: 0009-0008-0756-2256***АННОТАЦИЯ**

This article analyzes archival materials in Russian Oriental studies related to Uzbek classical literature, particularly in the field of Babur studies, which have so far remained outside the attention of the scholarly community. The research is primarily based on sources preserved in major academic centers in Saint Petersburg, including the archives of the National Library of Russia, the Russian Academy of Sciences, and the Institute of Oriental Manuscripts. The study employs archival Oriental studies and imagology as methodological frameworks in order to reconsider the historical-literary process and to illuminate previously unknown aspects of Russian Babur studies.

The focus of the article is the published and unpublished scholarly legacy of A.N. Samoylovich. His reviews of translations of the “Baburnama,” his efforts to prepare a complete edition of the “Mubayyin,” and his textual studies of the Paris and Rampur manuscripts of Babur’s Divan are introduced into academic circulation. The article also examines manuscript materials related to the second part of “The Collection of Poems of Emperor Babur.” Particular attention is paid to Samoylovich’s principles of translation studies, his rigorous and principled approach to textual interpretation, and his observations concerning the genre, meter, and linguistic features of Babur’s poetry. In addition, the composition of the Paris and Rampur manuscripts of Babur’s Divan, their differences, poems not included in the divans, and the comparative study of poetic texts found in the “Baburnama” and other sources constitute significant scholarly findings of the article. The study argues that examining archival materials from imagological and textual perspectives contributes to the development of new research directions in Uzbek literary studies and provides an opportunity to reconstruct the history of Babur studies more comprehensively and objectively.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Babur, Babur studies, Russian Oriental studies, archival Oriental studies, imagology, A.N. Samoylovich, “Baburnama,” “Mubayyin,” Babur’s Divan, Paris manuscript, Rampur manuscript, textual studies, translation studies, manuscript sources, Russian Navoi studies, scholarly legacy, literary relations, comparative literature.

**НЕИССЛЕДОВАННЫЕ АСПЕКТЫ РУССКОГО БАБУРОВЕДЕНИЯ****Халлиева Гулноз Искандаровна***Профессор кафедры мировой литературы**доктор филологических наук**Узбекский государственный университет мировых языков**Ташкент, Узбекистан**Email: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru)**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Каххарова Дилафруз Абдугаффаровна***доктор философии (PhD) по филологии**врио доцента кафедры мировой литературы**Узбекский государственный университет мировых языков**Ташкент, Узбекистан**Email: [dilafrozqahharova@gmail.com](mailto:dilafrozqahharova@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0008-0756-2256***ABSTRACT**

В данной статье анализируются архивные материалы по узбекской классической литературе, относящиеся, в частности, к изучению творчества Бабура в русской ориенталистике, которые до настоящего времени оставались вне внимания научной общественности. Исследование основано преимущественно на источниках, хранящихся в крупных научных центрах Санкт-Петербурга, – в архивах Российской национальной библиотеки, Российской академии наук, а также Института восточных рукописей. В качестве методологической основы используются методы архивной ориенталистики и имагологии, что позволяет по-новому осмыслить историко-литературный процесс и осветить ранее неизвестные страницы русского бабуроведения.

В центре внимания в статье находится опубликованное и неопубликованное научное наследие А.Н. Самойловича. В научный оборот вводятся его рецензии на переводы «Бабур-наме», работы, связанные с подготовкой полного издания трактата «Мубайин», а также текстологические исследования парижской и рампурской рукописей дивана Бабура. Кроме того, рассматриваются рукописные материалы, относящиеся ко второй части издания «Собрание стихотворений императора Бабура». Особое внимание уделяется принципам, определяющим деятельность Самойловича в области изучения переводов, его строгому и принципиальному подходу к интерпретации текста, а также наблюдениям над жанровыми, метрическими и языковыми особенностями поэзии Бабура. Существенными научными результатами исследования являются анализ состава парижской и рампурской рукописей дивана Бабура, выявление их различий, изучение стихотворений, не вошедших в диваны, а также сравнительное исследование поэтических текстов, содержащихся в «Бабур-наме» и других источниках. В статье обосновывается, что изучение архивных материалов с позиций имагологии и текстологии способствует формированию новых направлений в узбекском литературоведении и позволяет более полно и объективно реконструировать историю бабуроведения.

**KEY WORDS**

Бабур,  
 бабуроведение, русская  
 ориенталистика, архивная  
 ориенталистика,  
 имагология, А.Н.  
 Самойлович, «Бабурнаме»,  
 «Мубайин», диван Бабура,  
 парижская рукопись,  
 рампурская рукопись,  
 текстология,  
 переводоведение,  
 рукописные источники,  
 русское навоиведение,  
 научное наследие,  
 литературные связи,  
 сравнительное  
 литературоведение.

## KIRISH

Rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha nashr qilingan ilmiy tadqiqotlardan tashqari hali chop qilinmagan ilmiy ishlar ham mavjud bo‘lib, ular turli fondlarning arxivlarida saqlanmoqda. Bu o‘rinda e‘tibor asosan Rossiyaning Sankt-Peterburg kutubxonalari fondlaridagi arxivlarga qaratildi. Rossiya Milliy kutubxonasi arxivi, Rossiya FA qarashli Sankt-Peterburg filiali arxivi va Sharq qo‘lyozmalari instituti sharqshunoslar arxividagi mavzuga oid manbalar o‘rganilib, ularda mavjud adabiyotshunoslik masalalarini yoritishga harakat qilindi. Arxiv sharqshunosligi nisbatan yangi yo‘nalish va imagologiyaning tarkibiy qismlaridan biridir (Sheremet, 2008, 386). Imagologiya esa qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi (Ощепков, 2010, 248-249). Imagologiyaning vazifasi tarix va arxiv haqiqatlarini yuzaga chiqarishdan iborat («...её задача выявить истинные и ложные представления о других странах и их общественную роль») (Лыткина, 2010, 197).

## ASOSIY QISM

O‘zbek adabiyotshunosligida arxiv materiallari imagologik aspektda tekshirilmagan, bu esa mavzuning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi. Dissertatsiyaning mazkur bobida asosan A.N. Samoylovich arxivi (Samoylovich, 1966, 111) va rus navoiyshunosligi bilan bog‘liq arxiv materiallari o‘rganilgan.

Kuzatishlarimiz asosida A.N. Samoylovichning Navoiy, Bobur, Husayn Boyqaro, Munis, Mirzo Masihiy, Roji, Komil, Farrux, Mirzo, Qutb ijodiy merosi, Xiva bosmaxonasi va saroyi kutubxonasidagi qo‘lyozmalar bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlari nashr qilinmagani ma’lum bo‘ldi (Vamberi, 1892, 463–476-478).

Dastavval rus boburshunosligining ilmiy jamoatchilikka noma’lum tomonlari, bu borada A.N. Samoylovichning tarixiy xizmatlarini yoritish maqsad qilindi. Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan adabiy, tarixiy, ilmiy merosni o‘rganish dunyo ilmida boburshunoslik sohasini vujudga keltirdi va fan tarixini yangi tadqiqotlar bilan boyitdi.

Bobur ijodi Fitrat, P. Shamsiyev, H. Yoqubov, V. Zohidov, S. Azimjonova,

A. Qayumov, A. Abdugʻafurov, Gʻ. Salomov, N. Otajonov, B. Qosimov, S. Hasanov, H. Boltaboyev, U. Erskin, L.M. Puul, M. Edwards, A. Beverij, H. Beverij, R.M. Kaldekot, Ch. Stori, E. Holden, L.U. King, F.J. Talbot, D. Ross, J. Elfiniston, I. Mano, F. Kuprulu, Z. Mansuriy, A.K. Singha, P. Sharma, R.R. Arat, Sh. Boyir, Sh. Yorqin, N. Ilminskiy, N.I. Veselovskiy, A. Samoylovich, M. Salye, I.V. Stebleva, L. Tugusheva, G. Blagova kabi oʻzbek, rus, yevropa, afgʻon, turk olimlari tomonidan oʻrganilgan.

Bobur qoʻlyozmalarini toʻplash, uning ijodiy merosi bilan qiziqish Rossiyada XIX asrdan boshlangan. Rus olimi I. Berezin 1857 yilda chop etilgan 3 jildlik “Turkiy xrestomatiya”ga “Boburnoma” va “Mubayyin” asarlaridan ayrim parchalarni kiritgan (Berezin, 1857, 47, 82–87, 226–272). A.N. Samoylovich I. Berezin haqidagi maqolasida “Turkiy xrestomatiya” nuqsonlardan xoli boʻlmasa-da, unga kirgan namunalar, masalan, “Mubayyin” asari oldin hech qayerda nashr qilinmagani bilan alohida qimmat kasb etishini taʼkidlaydi (Samoylovich, 1925, 169).

1857 yilda N. Ilminskiy Qozonda “Boburnoma”ni nashr qildiradi (Ilminskiy, 1857, 31). Shundan keyin matbuotda “Boburnoma”ning rus tilidagi tarjimalari paydo boʻla boshlaydi. Jumladan, V. Vyatkin, S. Polyakov, V. Ostrovskiy va boshqa olimlar asardan ayrim parchalarni tarjima qilib, rus kitobxonini Bobur ijodiy merosi bilan tanishtiradi (Поляков, 1923, 244, 252).

Kuzatishlar XX asrning birinchi yarmiga qadar Bobur ijodi bilan jiddiy qiziqqan olim A.N. Samoylovich boʻlganini koʻrsatdi. Uning bu borada bir qancha tadqiqotlari mavjud boʻlib, ulardan ayrimlari hali-hanuz ilmiy jamoatchilikka nomaʼlum boʻlib kelmoqda (Samoylovich, 1929, 466-467-469). Bundan tashqari, olim arxivida “Boburnoma”ning Qozon nashri asosida yigʻilgan, 3 papkadan iborat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik va etnografik yoʻnalishdagi maʼlumot hamda qaydlar saqlanadi (Samoylovich, 1929, 475).

A.N. Samoylovich dastavval eʼtiborini “Boburnoma”ga qaratadi, asarning barcha tarjimalari bilan yaxshi tanish boʻlgani bois ularni qiyosan oʻrganadi, ingliz,

fransuz, rus tiliga qilingan tarjimalar bilan bog‘liq ishlarga bir qator taqrizlar yozadi. Bu taqrizlar o‘zining obyektivligi, prinsipiialligi, talabchanligi bilan ajralib turadi. Xususan, uning V.L. Vyatkin, S.I. Polyakov, A. Beverij kabi olimlarning tarjimalariga, ilmiy ishlariga yozilgan taqrizlari fikrimiz dalilidir (Samoylovich, 1907, 310-311, 473).

A.N. Samoylovichning “Boburnoma” tarjimasi bilan bog‘liq nashr qilinmagan taqrizlarida tarjimaning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan tamoyillar belgilab berilgan, matnni xato o‘qish ayovsiz tanqid qilingan. Masalan, uning ingliz olimasi A. Beverij xonim tarjimasiga yozgan 22 sahifadan iborat taqrizida 4 ta zarur mezonning faoliyatga baho berishdagi o‘rniga diqqat qaratilgan:

1. Tarjimon tilni barcha nozikliklari bilan mukammal bilishi kerak;
2. V.V. Radlov tuzgan lug‘atga o‘xshash lug‘atlar bilan ishlash malakasi bo‘lishi;
3. O‘zigacha qilingan tarjimalarni qiyosiy-tanqidiy taqqoslashi;
4. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar, ayniqsa rus olimlarining tadqiqotlari bilan har tomonlama tanishish.

A.N. Samoylovich tarjimadagi ayrim parchalar tahlili orqali yuqorida qayd qilingan birinchi, uchinchi va to‘rtinchi talab to‘la bajarilmaganini aniqlaydi.

Rus olimi S.A. Polyakov ham 1904 yilda asardan 50 betni tarjima qiladi. A.N. Samoylovich 1907-yilda muallif faoliyatini va tarjimini ayamasdan tanqid qiladi. Jumladan, u S.A. Polyakov yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni quyidagicha izohlaydi: *“Промехи Полякова можно разбить на следующие три группы: ошибки и неточности в переводе отдельных слов и выражений, неверный перевод целых фраз вследствие непонимания турецкой конструкции, пропуски, оставление некоторых слов без перевода, а только передача их в транскрипции. Если последующие выпуски будут так же пестрить промахами и ошибками, то легко предвидеть, что вся работа Полякова пропадет даром”* (Samoylovich, 1907, 83).

Rossiya Milliy kutubxonasi arxivida Sankt-Peterburg universiteti

Sharqshunoslik fakulteti talabasi bo‘lgan B.M. Guryevning A.N. Samoylovich rahbarligida yozilgan “Farg‘ona” nomli kurs ishi ham saqlanadi. Ishda “Boburnoma”ning turkiy qo‘lyozma nusxalari taqqoslangan va fors, Yevropa tillariga tarjimalari asosida Farg‘ona tasviri qiyosiy o‘rganilgan .

Olim G. Blagovaning ta’kidlashicha, A.N. Samoylovich umrining salkam yigirma yilini “Boburnoma”ni o‘rganishga bag‘ishlagan. Olimning yuzaga chiqmagan ilmiy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rgangan olima qator izlanishlarida A.N. Samoylovichni Bobur ijodining bilimdoni sifatida e’tirof etadi (Blagova,1994,73).

A.N. Samoylovichning “Turkiy etyudlar” asari mundarijasidan ma’lum bo‘lishicha, ishning 3-bobi “Imperator Bobur yozuvchi sifatida” deb nomlangan hamda “Diniy traktat Mubayyin” va “Mistik traktat Risolayi Volidiya” kabi fasllardan iborat bo‘lishi kerak edi. Demak, muallif “Turkiy etyudlar”ni Bobur ijodiyotiga doir fikr-mulohazalar bilan boyitishni, shoirning barcha asarlari haqida qisqacha ma’lumot berish va to‘plamga kirgan she’riy asarlar tilini tahlil etishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, A.N. Samoylovich O‘rta Osiyo turkiy adabiyoti xrestomatiyasini tuzishni, “XVI asrlar adabiyoti” degan qismida Bobur hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni berishni ko‘zlagan. Olim arxivi kuzatilganda mazkur xrestomatiyaning rejasi va ba’zi qaydlar aniqlandi (Samoylovich, 1908, 469). Ammo mash’um qatag‘on A.N. Samoylovichga bu xayrli ishlarni amalga oshirishga imkon bermadi (АШНИН, АЛПАТОВ, 1996, 29).

Olim arxividagi tadqiqotlardan birida yana bir muhim xabar – “Mubayyin” asarini nashrga tayyorlayotganini ma’lum qiladi: “...в Казани была отпечатана третья часть крупного труда Бабура ‘Мубейн’. Полное издание ‘Мубейна’ по единственной рукописи И. Березина подготавливается мною” (Samoylovich, 1906, 476). Haqiqatan ham, A.N. Samoylovich arxivida asarning u nashrga tayyorlagan nusxasi saqlanmoqda (Samoylovich, 1906, 470).

Olimning ishga jiddiy kirishganini arxivda saqlanayotgan uning o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan “Mubayyin” (266 bet) asari, unga yozilgan qaydlar, shuningdek, “Bobur ijodiga doir qoramalar”i ham tasdiqlaydi (Samoylovich, 1906, 471).

1917 yilda A.N. Samoylovich Bobur devonining Parij va Hindiston nusxalari asosida “Sobranie sochineniy imperatora Babura” nomli to‘plamni nashr qildiradi. Bu fakt ayrim nashrlarda 2 ta qo‘lyozma nusxa va “Boburnoma”dagi she‘rlar asosida deb noto‘g‘ri talqin qilingan (Samoylovich, 1976, 80), chunki olim “Boburnoma”dagi she‘rlarni alohida o‘rgangan (Samoylovich, 1906, 472).

A.N. Samoylovichdan sal oldin, ya‘ni 1910 yilda ingliz olimi D. Ross Bobur devonini Rampur (Hindiston) nusxasi asosida qo‘lyozma faksimilesi bilan birga Kalkuttada nashr qildiradi (Denison Ross, 1910, 422). 1911 yilda A.N. Samoylovichning bu haqdagi maqolasi e‘lon qilinadi (Samoylovich, 1911, 311). Maqoladan ma‘lum bo‘lishicha, devonning Rampur nusxasi ikki qismdan: “Volidiya” asarining Bobur qalamiga mansub turkiy tarjimasidan va she‘rlardan tashkil topgan.

A.N. Samoylovich D. Ross so‘z boshisida qayd etilmagan ayrim jihatlarga e‘tibor qaratadi. Jumladan, Rampur nusxasidagi she‘rlar Boburning Hindistondagi davriga mansubligini “Boburnoma” asosida isbotlaydi. Shuningdek, u mazkur to‘plamda boshqa qo‘lyozma devonlarda uchramaydigan 379 ta she‘r borligini aniqlaydi (Samoylovich, 1911, 101).

Rampur nusxasi Parij nusxasidan farqli ravishda turkiy she‘rlardan tashqari fors va urdu tillaridagi she‘rlarni ham o‘z ichiga oladi. Qo‘lyozmaning Bobur o‘z qo‘li bilan yozgan misrasi bilan yakun topishi uni alohida qimmatli manbaga aylantiradi.

A.N. Samoylovich maqola so‘ngida ayrim kamchiliklarga qaramay, D. Rossning Rampur nusxasini topib nashr qilganini yuksak baholaydi va bu nashr tufayli turkologlar Bobur devonining yana bir yangi nusxasi bilan tanishganini ta‘kidlaydi.

1911–1917 yillardagi izlanishlar natijasida A.N. Samoylovichning

“Imperator Bobur she’rlari to’plami. I qism” nomli nashri yuzaga keladi (Samoylovich, 1917, 312). Bu esa olim ishni davom ettirish, II qismni ham yozish niyatida bo’lganini ko’rsatadi. Arxiv tadqiqi natijasida ishning ikkinchi qismi ham topilib, tahlil qilindi (Samoylovich, 1917, 476).

Mazkur manba “Imperator Bobur she’rlari va A.N. Samoylovich tarjimalari” deb nomlanadi. U kirish, besh qism, ko’rsatkichlar, matn va tarjimadan iborat. Kirish qismida muallif Bobur ijodini o’rganishni ham burch, ham faxr, ham baxt deb baholaydi.

Tarjimalarni I.V. Stebleva nashridagi asl matn bilan qiyoslash asosida ayrim joylarda xato o’qishlar aniqlangan bo’lsa-da, aksariyat hollarda mazmun va badiiylik muvaffaqiyatli saqlangan.

Navoiy va Bobur ijodiy uslubini taqqoslar ekan, A.N. Samoylovich Bobur uslubining xalq tiliga yaqin, sodda va ravonligini, Navoiy uslubining esa murakkab va badiiy jihatdan serqirraligini ta’kidlaydi.

### **XULOSA**

A.N. Samoylovich o’zining nashr qilingan va hali ilmiy muomalaga to’liq kiritilmagan tadqiqotlari bilan boburshunoslik taraqqiyotiga beqiyos hissa qo’shdi. U nafaqat “Boburnoma” va Bobur devonining matnshunoslik jihatlarini chuqur o’rgandi, balki tarjimashunoslik, qo’lyozmashunoslik va tarixiy-adabiy tahlil sohalarida ham puxta ilmiy mezonlar ishlab chiqdi. Samoylovichning ilmiy merosi Bobur asarlarini o’rganishda aniqlik, manbaga sodiqlik, qiyosiy yondashuv va prinsipiiallik kabi tamoyillarni mustahkamladi. Uning taqrizlari va ilmiy izohlarida matnni xato o’qish, tarixiy kontekstni noto’g’ri talqin qilish kabi kamchiliklarga nisbatan keskin munosabat bildirishi olimning ilmiy halolligi va talabchanligidan dalolat beradi. Shu jihatdan u Bobur ijodini o’rganish nafaqat ilmiy vazifa, balki ma’naviy mas’uliyat ekanini amalda ko’rsatdi va bu jarayonni o’zi ta’kidlaganidek “burch, faxr va baxt” darajasiga ko’tardi.

Samoylovich tomonidan boshlab berilgan ilmiy an’ana keyingi tadqiqotchilar tomonidan izchil davom ettirildi. Xususan, I.V. Stebleva Bobur she’riyatining poetik

tizimini, janr va vazn xususiyatlarini tahlil qilib, matnshunoslik an'alarini yanada boyitdi. L. Tugusheva qo'lyozma manbalarni o'rganish va ularni ilmiy tavsiflash borasida muhim ishlarni amalga oshirdi. G.F. Blagova esa Samoylovich ilmiy merosini chuqur tahlil qilib, uning tilshunoslik va adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasini asoslab berdi.

Shunday qilib, A.N. Samoylovich asos solgan ilmiy yo'nalish rus boburshunosligining mustahkam metodologik poydevoriga aylandi. Bu an'ana keyingi avlod olimlari tomonidan rivojlantirilib, Bobur ijodini har tomonlama, manbaviy va qiyosiy asosda o'rganish tamoyili ilmiy maktab darajasiga ko'tarildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YATI

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабур. – Т.: Фан, 1966.
2. Абдуллаев В. Из истории изучения жизни и творчества Навои // Некоторые вопросы узбекской литературы. – Т., 1966.
3. Аракин В.Д. Сравнительно-исторический метод в исследованиях А.Н. Самойловича // Тюркологический сборник. – М., 1978.
4. Акимущкин О.Ф. К истории формирования фонда мусульманских рукописей Института востоковедения АН СССР // Ежегодник ППВ. 1978–1979.
5. Архив востоковедов Института восточных рукописей РАН. Фонд А.Н. Самойловича.
6. Российская национальная библиотека. Архивные материалы.
7. Самойлович А.Н. Турецкие этюды.
8. Самойлович А.Н. Собрание стихотворений императора Бабур.
9. Ross D. (ed.). The Diwan of Babur (Rampur manuscript). – Calcutta, 1910.
10. Beveridge A. The Baburnama (Memoirs of Babur).

### REFERENCES

1. Azimdzhanova S. (1966). *Indian Divan of Babur*. Tashkent: Fan.

2. Abdullayev V. (1966). *On the History of the Study of Navoi's Life and Works // Some Issues of Uzbek Literature*. Tashkent.
3. Arakin V.D. (1978). *Comparative-Historical Method in the Studies of A.N. Samoylovich // Turkological Collection*. Moscow.
4. Akimushkin O.F. (1978–1979). *On the History of the Formation of the Fund of Muslim Manuscripts of the Institute of Oriental Studies of the USSR Academy of Sciences // Annual of PPV*.
5. Archive of Orientalists of the Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences. Fund of A.N. Samoylovich.
6. Russian National Library. Archival Materials.
7. Samoylovich A.N. *Turkish Etudes*.
8. Samoylovich A.N. *Collection of Poems of Emperor Babur*.
9. Ross D. (ed.). (1910). *The Diwan of Babur (Rampur Manuscript)*. Calcutta.
10. Beveridge A. *The Baburnama (Memoirs of Babur)*.